



## ISSUES OF THE USE OF OBJECTS OF CULTURAL HERITAGE IN UZBEKISTAN (On the example of Namangan region)

*Mamurjon Rasulov*

*Associate Professor, PhD*

*Fergana State University*

*Uzbekistan, Fergana*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** culture, objects of cultural heritage, architectural structures, Namangan Region, Tourism.

**Received:** 28.11.24

**Accepted:** 30.11.24

**Published:** 02.12.24

**Abstract:** Over the past decade, Uzbekistan has undergone extensive reforms in the preservation, restoration and conservation of cultural heritage objects and their use. Various scientific approaches have arisen to the preservation, protection of historical and cultural objects (architectural structures, archaeological objects, etc.) preserved on the territory of the Republic, their use in the development of domestic and international tourism and for cultural and educational purposes.

## O‘ZBEKISTONDA MADANIY MEROS OBYEKTLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI (Namangan viloyati misolida)

*Ma'murjon Rasulov*

*dotsent, PhD*

*Farg‘ona davlat universiteti*

*O‘zbekiston, Farg‘ona*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** madaniyat, madaniy meros obyektlari, me‘moriy inshootlar, Namangan viloyati, turizm.

**Annotatsiya:** O‘zbekistonda so‘nggi o‘n yillikda madaniy meros obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish hamda ulardan foydalanish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Respublika hududida saqlanib qolgan tarixiy-madaniy obyektlar (me‘moriy inshootlar, arxeologiya obyektlari va boshqalar)ni saqlash, muhofaza qilish, ulardan ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda hamda madaniy-ma‘rifiy maqsadlarda foydalanish borasida turli ilmiy yondashuvlar vujudga keldi.

## ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОБЪЕКТОВ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ (На примере Наманганской области)

*Мамуржон Расулов*

*доцент, PhD*

*Ферганский государственный университет*

*Узбекистан, Фергана*

---

### О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** культура, объекты культурного наследия, архитектурные сооружения, Наманганская область, туризм.

**Аннотация:** За последнее десятилетие в Узбекистане были проведены широкомасштабные реформы в области сохранения, реставрации и консервации и использования объектов культурного наследия. Сложились различные научные подходы к сохранению, охране историко-культурных объектов (архитектурных сооружений, объектов археологии и др.), сохранившихся на территории республики, их использованию в целях развития внутреннего и международного туризма, а также в культурно-просветительских целях.

---

### KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, “Alohida muhim ijtimoiy, madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlarni qurish, restavratsiya, rekonstruksiya qilish va mukammal ta’mir lash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mazkur sohada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan [1.].

### ASOSIY QISM

O‘zbekistonda xalqaro va ichki turizm industriyasini rivojlantirish imkoniyatlari juda keng va turli-tumandir. Bu sohada Respublikadagi madaniy meros obyektlari alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda Respublikada 8210 ta madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, shundan 2266 tasi me‘morchilik, 4748 tasi arxeologik yodgorliklar, 678 tasi mahobatli san‘at obyektlari, 532 tasi diqqatga sazovor joylardir [2.]. Shuningdek, 4000 dan ortiq moddiy-madaniy yodgorliklar YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, ular alohida muhofazani talab etadi. Ushbu madaniy meros yodgorliklar noyoblighi, jozibadorligi, milliy mentalitet va

qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirganligi bilan sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Mazkur holatni chet el mutaxassislari, ommaviy-axborot vositalari, sayyohlar e'tirof etmoqdalar. Masalan, Avstraliyaning "Skyscanner" axborot portali ekspertlari tomonidan "Instagram" ijtimoiy tarmog'idan foydalanuvchilar uchun dunyoning eng go'zal joylari reytingi berilgan. Yer yuzidagi 15 ta eng ajoyib shahar kiritilgan ro'yxatning oltinchi pog'onasida o'zining tarixiy durdonalari, qadimiy obidalari, ulug' allomalari va mutafakkirlari bilan dunyoga tanilgan Samarqand shahri ham o'rin olgan [3. – B. 593.]. Hozirda mamlakatda 180 dan ortiq xalqaro sayyohlik yo'nalishlarining 140 tasi aynan tarixiy madaniy meros obyektlari bilan bog'liqdir [4.].

Yuqoridagi holatlarni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan mamlakatimizda turizm industriyasini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va Ushbu sohada aniq dastur asosida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, sayyohlik mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida belgilandi. Prezidentning 2017-yil 16-avgustdagi qarori bilan 2018–2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. 2018-yilning fevral oyida e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 6-fevraldagi "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 6-fevraldagi "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2019-yil 16-aprelda Oliy Majlis tomonidan yangi tahrirdagi "Turizm to'g'risida"[5.] qonun qabul qilindi.

2018-yil 10-fevraldan boshlab Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Turkiya va Isroildan kelayotgan sayyohlarga mamlakatda 30 kungacha kungacha vizasiz bo'lishga ruxsat berildi. Bundan tashqari, 39 mamlakat fuqarolariga viza berish tartibi soddalashtirildi. 2019-yil 1-fevraldan boshlab 45 ta mamlakat fuqarolari uchun O'zbekistonga kirgan kundan e'tiboran 30 kunlik muddatga vizasiz rejim belgilandi, fuqarolari elektron kirish vizasini olish imkoniyatiga ega bo'lgan mamlakatlar ro'yxati kengaytirildi (tasdiqlangan ro'yxatda 76 ta davlat bor – R.M.). 2019-yil 15-martdan boshlab esa, elektron kirish vizalarining yangi turlari paydo bo'ldi, ular "oddiy" elektron vizalardan bir qancha qulayliklari bilan ajralib turadi [6.].

Yuqorida keltirib o'tilgan huquqiy hujjatlarning amaliy samarasi hozirgi kunda o'z natijasini ko'rsatmoqda. Masalan, oxirgi besh yilda O'zbekistonga kelgan sayyohlar oqimi 72 foizga o'sgan. 2017-yilda O'zbekistonga 2,7 mln nafar turist kelgan bo'lsa, 2022-yilda

ularning soni 1,9 barobarga o'sib, 5,2 mlanni tashkil qildi [7.]. 2023-yilda esa 7 mln nafarga yaqin chet el fuqarosi turistik maqsadlarda keldi. Ularning mamlakatda qolish muddati o'rtacha to'rt kungacha uzaydi, bu 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga ko'p ekanligini ko'rsatadi [8.].

Mamlakatda sayyohlik sohasidagi islohotlar chet el ommaviy-axborot vositalarida ham o'z aksini topmoqda. 2018-yilning yozida AQShning dunyoga mashhur "Lonely Planet" jurnali "Osiyodagi sayohat uchun eng maqbul joylar reytingi"ni e'lon qildi. O'zbekiston ilk bor mazkur ro'yxatga kiritilib, Janubiy Koreyadan keyin ikkinchi o'rinni egalladi. Mamlakat o'zining jozibadorligi bo'yicha Vetnam, Yaponiya, Tailand, Nepal, Shri-Lanka, Xitoy va Indoneziya singari davlatlardan yuqoriroq pog'onada qayd etildi [9.]. Jurnal saytida Kanadaning "G Adventures" sayyohlik kompaniyasi ekspertlari fikri asosida 2019-yilda eng ommabop bo'ladigan 10 ta sayyohlik yo'nalish e'lon qilindi. O'ntalikda birinchi pog'onani Yaponiya, ikkinchi pog'onani esa O'zbekiston egalladi. Buyuk Britaniyaning nufuzli "The Telegraph" gazetasida e'lon qilingan "2019-yilda borish lozim bo'lgan 10 ta mamlakat" ro'yxatida O'zbekiston birinchi o'rindan joy olgan [10.].

Ushbu sa'y-harakatlarni nafaqat O'zbekiston xalqi, balki xorij ilm ahli, ommaviy-axborot vositalari ham qo'llab-quvvatlamodalar hamda o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirmoqdalar. Jumladan, Fransiyada chop etiladigan nufuzli "La Revue" jurnalida taniqli olim, Temuriylar tarixi va san'atini o'rganish uyushmasi prezidenti Frederik Bopertyui-Bressanning "O'zbekona mayin kuch" ("La Soft Power Ouzbek") nomli maqolasi e'lon qilindi. Maqolada quyidagicha fikr bildiriladi: "O'zbekiston o'zining diplomatik faoliyati hamda madaniy ta'sirini jadal kengaytirishga intilmoqda. Xalqaro amaliyotda bunday siyosat "mayin kuch" ("soft power") deb yuritiladi. Shu paytgacha mazkur mexanizm mamlakatga xalqaro hamjamiyatning e'tiborini tortish va uning jahon maydonidagi obro'sini mustahkamlash yo'lida qo'llanilmas edi. Ammo, bugungi kunda O'zbekiston rahbariyati "soft power" imkoniyatlaridan keng foydalanmoqdaki, bu mintaqaning boshqa mamlakatlari uchun ham o'rnak bo'lishi mumkin" [3. – B. 594.].

O'zbekistonda xalqaro va ichki, ziyorat turizmning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilayotganligi munosabati bilan viloyatlardagi tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan madaniy meros obyektlariga yangi sayyohlik yo'nalishlari ochilmoqda. Buning uchun viloyatlarda keng imkoniyatlar mavjud. Jumladan, Namangan viloyati misolida oladigan bo'lsak, bu yerda ham xalqaro va ichki, ziyorat turizmi salohiyatini oshirishga barcha imkoniyatlar mavjud. Xususan, xalqaro gullar festivali, madaniy meros obyektlari, milliy hunarmandchilik sohalar turizmi, ekoturizm, gastronom turizmi kabi sayyohlik yo'nalishlarini tashkil etish va bu sohada Namangan brendini yaratish imkoniyati mavjud.

Namangan sharida 1961-yildan buyon o'tkazilib kelinayotgan gullar bayrami (2018-yildan xalqaro gullar festivali) viloyat turizm brendini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki, bu tadbir xalqaro festival maqomiga ega bo'lgandan so'ng, viloyatga mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimi, xorijiy mamlakatlar ishtiroki keskin ko'paydi. Masalan, 61-xalqaro gullar festivali (2022-yil)da respublika viloyatlaridan kelgan 250 nafar usta gulchilar hamda 22 ta xorijiy davlatdan tashrif buyurgan mohir gulchi mutaxassislar, landshaft dizaynerlari ishtirok etgan [11.] bo'lsa, 62-xalqaro gullar festivali (2023-yil)ning ilk kunida 500 mingdan ortiq mehmon tashrif buyurdi. Festivalga qo'shni Qirg'iziston Respublikasidan 5839 nafar, Qozog'istondan 283 nafar va Tojikiston Respublikasidan 149 nafar sayyohlar tashrif buyurgan. Xorijiy mehmonlarning asosiy qismini qo'shni Qirg'iziston, Qozoqiston va Tojikiston fuqarolari tashkil etgan bo'lsa, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Bangladesh, Hindiston kabi davlatlardan ham sayyohlar tashrif buyurganlar [12.].

Joriy yilning 19-may – 23-iyun kunari bo'lib o'tgan 63-xalqaro gullar festivalida 6 million nafardan ziyod mahalliy, 200 ming nafardan ortiq xorijiy mehmonlar tashrifi kutilgan. Tadbirning birinchi kunida Xitoy, Koreya, AQSh, Yaponiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Bolgariya, Turkiya kabi mamlakatlardan davlat takshilotlari vakillari, investorlar va turizm sohasiga aloqador mutasaddilar ishtirok etdilar [13.]. Festivalning yillar kesimidagi dinamikasidan ko'rinib turibdiki, Namangan viloyatiga birgina shu tadbir uchun tashrif buyuruvchilar soni yildan-yilga oshib bormoqda, sayyohlar geografiyasi kengaymoqda.

Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning yana bir muhim yo'nalishi madaniy meros obyektlaridir, ayniqsa, Axsikent yodgorligi bu yo'nalishning asosiy tashrif qog'ozidir. Bu borada hukumat darajasida chora-tadbirlar [14.] ko'rilmogdagi, viloyatda sohani rivojlantirishning, xalqaro me'yorlar talablariga javob beradigan turizm infratuzilmasini yaratishda muhim mexanizm bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Axsikent yodgorligi 2019-yil fevral oyida O'zbekistonda birinchi bo'lib zamon talablariga to'liq javob beradigan ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirildi [15.].

Viloyatda 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 274 ta madaniy meros obyektlari davlat muhofazasiga olingan bo'lib, ulardan arxeologiya yodgorliklari – 152 ta; me'moriy (arxitektura) yodgorliklari – 98 ta; diqqatga sazovor joylar – 16 ta; monumental san'at yodgorliklari – 8 tani tashkil etgan [16.]. Bulardan eng qadimgi va muhim tarixiy ahamiyat kasb etadigan hamda turistik yo'nalishlar ochish mumkin bo'lgan madaniy meros obyektlariga Axsikent (mil.avv. III–II asrlar.), Munchoqtepa (jez davri), Oyritom, Mug'tepa (antik davr) va boshqalar; me'moriy yodgorliklardan: Jome masjidi (XVIII asr), Chodak madrasa-masjidi (XVIII asr), Shayx Ishoq Eshon

(XIX asr), Ota Valixon to'ra yoki Atoulloxon (XX asr), Haqqulobod (1903-yil) masjidlari, Yusupxon Eshon (XVIII asr), Mavlono Lutfullo Chustiy (1913-yil) me'moriy majmualari, G'oyib Nazar (1892-yil), Mulla Qirg'iz (1911–12-yillar) madrasalari, Xo'ja Amin (XVII asr), Boy Hamadoniy (XIX asr), Mavlono Namangoniy (1907-yil) maqbaralari, Yusufboy Hoji uyi (XX asr boshlari) va boshqalarni kiritish mumkin [17. – B. 255.].

Viloyatdagi davlat muhofazasiga olingan jami madaniy meros obyektlaridan 54 tasi (19,7 foiz), shundan: 31 ta (20,4 foiz) arxeologik yodgorliklar, 13 ta (13,3 foiz) me'moriy obidalar va 10 ta (62,5 foiz) diqqatga sazovor joylar [18.] hali ilmiy tadqiq etilmagan, ya'ni ularning xronologik davri, nima maqsadda va kim tomonidan qurilganligi hamda qanday vazifalarni bajarganligi aniqlanmagan. Mazkur obyektlarni tadqiq etish Namangan viloyati turizm salohiyatini yanada yuqoriroqqa ko'tarishi mumkin.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Namangan shahri va uning tumanlarida joylashgan madaniy meros obyektlari viloyatda ichki, xalqaro hamda ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, hozirgi kun talabidan kelib chiqib, mazkur obyektlar haqida sayyohlar uchun mo'ljallangan ilmiy-ommabop ma'lumotnomalar va yo'lko'rsatkichlarini tayyorlash dolzarb muammolardan biridir. Tadqiqotchilar mazkur muammolar ustida ish olib borsalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bundan tashqari, ko'plab tarixiy qimmatga ega bo'lgan madaniy meros obyektlarida ular (ayniqsa, chekka hududlarda joylashgan me'moriy va arxeologik yodgorliklar) haqida ma'lumot beruvchi peshlavhalar qo'yilmagan, qo'yilganlarining ayrimlarida esa yodgorlik haqida batafsil ilmiy ma'lumotlar berilmagan. Buning uchun har bir yodgorlikning tarixi, vazifasi, turli davrlarda qanday maqsadlarda foydalanilganligi va boshqa tomonlarini to'liq ilmiy asosda ochib berilsa hamda barcha madaniy meros obyektlarining mukammal xaritasini ishlab chiqilib, shu xarita asosida yodgorliklarga yo'naltiradigan GPS Navigator tizimi yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### Adabiyotlar / Ссылки / References:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни янада такомиллаштириш юзасидан қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2014. 21 июль. 200-сон. [www.lex.uz](http://www.lex.uz); Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармойиши. Алоҳида муҳим ижтимоий, маданий ва тарихий аҳамиятга эга бўлган объектларни қуриш, реставрация, реконструкция қилиш ва мукамал таъмирлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 2018. 10 сентябрь. Ф-5361-сон. [www.lex.uz](http://www.lex.uz); Ўзбекистон Республикаси

Президентининг Қарори. Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. 2018. 28 ноябрь. ПҚ-4038-сон. [www.lex.uz](http://www.lex.uz); Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Моддий маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. 2018. 19 декабрь. ПҚ-4068-сон. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2. <https://madaniymeros.uz/>

3. Расулов М. Қўқон шаҳрида ички ва халқаро сайёҳликни ривожлантиришда меъморий обидаларининг ўрни. “Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари” республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Наманган. 2020. – 424 б.

4. Мухторов Н. Маданий мерос объектларига эътибор янада кучаяди // <https://parliament.gov.uz> 2018. 24 декабрь.

5. <https://lex.uz/docs/-4428097>

6. Замонов О. Ўзбекистонга хуш келибсиз: мамлакатимиз виза тизими соддалаштирилмоқда // <https://www.norma.uz>.

7. <https://kun.uz/93697579?q=%2Fuz%2F93697579>

8. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/02/21/tourists/#:~:text=2023%2Dyilda%20O'zbekistonga%207,el%20fuqarosi%20turistik%20maqsadlarda%20keldi>

9. Махсумов С. “Lonely Planet” рейтингида Ўзбекистон иккинчи ўринни эгаллади // Халқ сўзи. 2018. 20 ноябрь. № 239.

10. Ўзбекистон – 2019 йилда бориш лозим бўлган 10 та мамлакатдан бири // Халқ сўзи. 2019. 7 февраль. № 26.

11. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Gullar\\_festivali](https://uz.wikipedia.org/wiki/Gullar_festivali)

12. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/05/23/gullar-fest/>

13. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/20/gullar-fest/>

14. <https://lex.uz/ru/docs/-3382160>

15. <https://academy.uz/uz/news/axsikent-ochiq-osmon-ostidagi-muzey>

16. <https://www.stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/50269-namangan-viloyati-da-nechta-moddiy-madaniy-meros-obyektlari-mavjud>

17. «Ўзбекистан миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2003 Т. 6. – Б. 255.

18. [https://backend.madaniymeros.uz/media/uploads/open-data/846\\_04.10.2019\\_milliy\\_royhat.pdf](https://backend.madaniymeros.uz/media/uploads/open-data/846_04.10.2019_milliy_royhat.pdf)